



Xoldor Vulqon



Odob

(O‘zbekiston Respublikasi KGBsining sobiq rahbari, marhum G‘ulom Aliyevich Aliyevning porloq hotirasiga bag‘ishlanadi)

Agar odam bolasi odob deb atalgan fazilatga ega bo‘lmasa, uning musulmonligi ham, nasroniyligi ham, iyudeyligi ham yolg‘on.

Odobning kushandasi kibrdir. Kibrli kimsalar o‘zidan boshqalarga xuddi chumoliga, ojiz xasharotga qaraganday qaraydilar, va alaloqibat o‘zining beodobligi bilan nazardan qoladilar. Baqavli Odam alayxissalomga sajda qilishdan bosh tortib, Yaratganning amrini bajarmagan va Olloxning mangu la‘natiga uchragan Azozil alayxulla‘na kabi.

Bu hayot mening tasavvurimcha ulkan bir kalava ekan. Kalavaning uchini topib, tortqilasang bas, bir -biridan qiziq, ibratli voqealar chuvalanib chiqaveradi.

Bir paytlar Andijonda Shaydo Umar degan aziz do‘stim bor edi. Rahmatli Shaydo Umar aka she‘rlar, hikoyalar va qissalar yozar, ammo o‘z yozganlaridan ko‘ngli to‘lmas, garchand mendan 30 yosh katta bo‘lsalar ham o‘zlarini katta olmas, adabiyotda bilmagan narsalarini mendan so‘rab o‘rganardilar. Shu shoirning tavsiyasi bilan men Andijonning "Neftprom" mavzesida tug‘ilib, o‘sib, ulg‘ayib, polkovnik darajasiga ko‘tarilgan

Sharobiddin aka ismli xarbiy ofitser haqida hotira kitobi yoza boshladim.Kitobni yozish jarayonida uyoqdan buyoqqa chopib, Sharobiddin akani bilgan insonlar, xususan uning yaqinlari, sinfdoshlari, sobiq quroldosh do‘stlari bilan yuzma -yuz suhbatlashishimga to‘g‘ri keldi.Suhbat jarayonida, ayniqsa, Sharobiddin akaning farzandlari, turmush o‘rtog‘i Lola opalar bo‘g‘izlariga qadalgan yig‘idan gapirolmay qolar, bo‘zlab yig‘lardilar.Sinfdosh do‘stlari ham Sharobiddin akani eslab, gapirayotganlarida, ovozlari titrab, bu og‘ir judolikka chidolmay yig‘lab yuborardilar. Ko‘z yosh jovdiragan ko‘zlari tangaday yaltirab, yuzlarini bir chetga burib, achchiq ko‘z yoshlarini artardilar.

Bir kuni, tasodifan Ibroxim aka Sadirov ismli polkovnik bilan uchrashib qolgan paytim, men beixtiyor o‘sha hotira kitob, va Polkovnik Sharobiddin aka haqida to‘xtaldim.Ibrohim aka avvallari uzoq yillar Germaniyadagi sobiq sovet xarbiy qo‘shinlarida qo‘mondon, keyinchalik o‘zimizda Andijon viloyat Favqulodda Vaziyatlar Boshqarmasiga, viloyat Xarbiy Komissariyatiga rahbarlik qilgan shonli o‘zbek ofitseri va halol inson Sharobiddin aka haqida yaxshi fikrlar aytib, hotirlar ekan, -Ha, Viloyatimizda bunday ajoyib insonlar, qahramon ofitserlar juda ko‘p -deb qo‘ydi.Keyin yana bir ofitser polkovnik G‘anijon Abdusalomov haqida ham yozsangiz, ruhi shod bo‘lardi dedi.

Shundan keyin men polkovnik Ibrohim Sadirov bergan adres bo‘yicha G‘anijon Abdusalomovning uyini topib bordim.Rahmatli G‘anijon akaning o‘g‘illari va ayoli meni ochiq chehra bilan kutib olarkanlar, ichkariga taklif qildilar.Ular bilan ajoyib, inson, temir intizomli ofitser, G‘anijon Abdusalomov haqida uzoq suhbatlashdik.Ular G‘anijon Abdusalomovning hayoti va xarbiy faoliyati haqida u kishining yaqin do‘sti, O‘zbekiston Respublikasi sobiq KGBsining rahbari G‘ulom Aliyevich Aliyev bilan ham suhbatlashishimni tavsiya etdilar.

Men G‘ulom Aliyevichning uyiga bordim.Ichkariga kirib borganimda qalin polirovka stol tevaragidagi kursisida o‘tirgan G‘ulom Aliyevich Aliyev odob va hurmat bilan o‘rnidan turdilar.Soqollari olingan, kulrang sochlari ortga taralgan, oq ko‘ylakka galstuk taqqan ofitser, O‘zbekiston Respublikasi KGBsining sobiq rahbari men bilan qo‘l qisib, samimiy ko‘risharkan, uning qorin qismidagi naycha sistemaga ulangan yelim idishni ko‘rdim.Shundagina G‘ulom Aliyevichning jiddiy xasta ekanliklarini anglab yetdim.G‘ulom Aliyevich shunday ahvolda ham tushkunlikka tushmay, o‘zlarini tartibga keltirib, xonasiga kirib kelgan menday bir oddiy yozuvchini ham hurmatlab, o‘rnidan turdilar, samimiy qarshi oldilar.Biz G‘ulom Aliyevich rahmatli bilan marhum polkovnik G‘anijon Abdusalomov haqida

uzoq suhbatlashdik.

Keyinchalik men ikkala ofitser haqidagi hujjatli kitoblarni yozib tugatdim. Ammo, taqdir taqazosi bilan Vatandan ketayotgan paytlarim u kitoblar qayerlardadir qolib ketdi. Qo'lyozmalar yonmaydi degan gaplar bor. Vaqtlar kelib u yozgan kitoblarim ham topilar.

Maqoladan murod esa, xalqimizga hos, turmush tarzimizga mos yuksak insoniy fazilat -ODOB haqida va o'zlarining O'zbekiston Respublikasi sobiq KGBsida uzoq yillar rahbar bo'lib ishlaganlariga qaramay, o'zbekona odobni, samimiyatni, o'zaro hurmatni unutib qo'ymagan inson G'ulom Aliyev IBRATI haqida fikr yuritmoqchi edik halos.

Men o'sha paytlar G'ulom Aliyevich misolida haqiqiy o'zbek OFITsERining INSONIY qiyofasini ko'rganman, uning kamtarligiga odobiga qoyil qolganman va u odamga nisbatan hurmatim yanada ortgan.

Bugun oddiy lattapagon melisa fuqarolarni mensimay, o'zini salkam xudo sanab yurgan bizning zamonda G'ulom Aliyev hayoti, faoliyati, odobi, kamtarligi ibratlansa arziydigan fazilat emasmi?

Xudo xalqimizning shonli o'g'lonlaridan biri G'ulom Aliyevni o'z rahmatiga olib, marhumning joylarini Jannatdan qilsin!

30 yanvar, 2014 yil.

**Kunduz soat 10 dan 42 daqiqa o'tdi.
Kanada.**



